

Global Uran bozoridagi tendensiyalar 2026-yil may oyi bo'yicha yangilangan sharh



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

Asosiy sharhlar

Xalqaro uran bozori va narx dinamikasi

Operatsiyalar, loyihalar va korporativ faoliyat

Asosiy operatsion va korporativ voqealar

Yirik ishlab chiqaruvchilar va operatsion platformalar

Siyosiy, geosiyosiy va mintaqaviy signalalar


Yirik e'lon qilingan kelishuvlar

Texnologik va ekologik rivojlanish

Sohadagi ijtimoiy rivojlanish



URAN NARXINING O'RTACHA OYLIK KO'RSATKICHI



URAN NARXLARIDA BOZOR BARQARORLIGI VA STRATEGIK SIGNALLAR

Yanvar oyida kuzatilgan narxlar o'sishidan so'ng, uran bozori barqaror konsolidatsiya bosqichiga kirdi. Spot narxlar mart oxirida funt uchun 84,25 AQSH dollari va 30 aprel holatiga ko'ra 86,35 AQSH dollari atrofida bo'ldi. Uzoq muddatli shartnoma narxlari esa 91,50 AQSH dollarida saqlanib, kelajakdagi yetkazib berish xavfsizligiga bo'lgan doimiy talabni aks ettirdi.

April–may savdolari davomida spot narxlar \$83–\$87 oralig'ida qoldi. Bozordagi faollik barqaror va ehtiyotkor xaridlar bilan tavsiflandi, jumladan institutsional investorlar va SPUT kabi fondlar tomonidan davom etayotgan xaridlar bilan qo'llab-quvvatlandi.

Narxlar barqaror bo'lishiga qaramay, uzoq muddatli shartnoma tuzish hajmlari yetarli emas. Sprott' xabarlariga ko'ra, 2025 yil uchun uzoq muddatli shartnomalar 116 million funtni tashkil etgan bo'lib, bu yillik reaktorlar iste'molini qoplaydigan taxminiy 150 million funt darajasidan sezilarli darajada past ko'rsatkich. 2026 yil boshidagi dastlabki ko'rsatkichlar bu tafovut saqlanib qolayotganini bildiradi, bu esa uzoq muddatli narxlarning barqarorligiga turtki bo'lmoqda.

Muhim tuzilmaviy yangilik sifatida, CME Group mahsulot yetkazib berishga asoslangan uran fyuchers kontrakti joriy etilishini e'lon qildi. Ushbu qadam bozor shaffofligini oshirishi va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirishi mumkin.



URAN ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATI SUR'ATI VA STRATEGIK HARAKATLAR

April va may oylarida uran ishlab chiqarishi bir nechta mamlakatlarda kengaydi, bu esa yuqori narxlar va energiya xavfsizligiga oid siyosatlarning kon darajasidagi real yutuqlarga aylanganini ko'rsatdi. AQSHda Uranium Energy Corp Texas shtatidagi Burke Hollow konida ishlab chiqarishni ishga tushirdi — bu mamlakatda o'tgan o'n yillikdagi birinchi yangi ISR (in-situ recovery) loyihasidir. Shuningdek, Ur-Energy kompaniyasi Vayoming shtatidagi tarixiy ISR hududi bo'lgan Shirley Basin konida dastlabki qazib olish ishlarini boshladi.

Kanadada Cameco kompaniyasi birinchi chorakda kuchli ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini qayd etdi — McArthur River/Key Lake konlaridan 5,0 million funt va Cigar Lake konidan 4,9 million funt U_3O_8 qazib olindi, yillik reja tasdiqlandi. Biroq, may oyida Saskachevan shimolidagi toshqinlar muhim ko'priknig qulashiga sabab bo'ldi, bu esa Key Lake zavodida vaqtincha to'xtash va McArthur Riverda faoliyatni qisqartirishga olib keldi.

Denison Mines kompaniyasi Phoenix ISR loyihasida dastlabki qurilish ishlarini davom ettirdi va ikkinchi chorak oxirigacha to'liq qurilish bosqichiga o'tishni rejalashtirmoqda. Bu loyiha Athabasca havzasida ISR usullarini kengaytirishdagi strategik ahamiyatga ega.

Afrikada Paladin kompaniyasining Namibiyadagi Langer Heinrich koni iyul oyiga qadar maksimal ishlab chiqarishga chiqishni davom ettirmoqda. Lotus Resources esa Malavidagi Kayelekera loyihasini yiliga 2,4 million funt doimiy ishlab chiqarish darajasiga olib chiqish uchun zarur ishlarni yakunlamoqda (2026 yilning ikkinchi choragiga mo'ljallangan).

Shuningdek, Uranium Royalty Corp kompaniyasi Sweetwater Royalties bilan qiymati 1,9 milliard AQSH dollariga teng birlashuvni e'lon qildi. z ulushini oshirdi. Bu esa to'g'ridan-to'g'ri konchilik aktivlaridan tashqarida ham uran sohasiga tuzilmaviy investitsiya Uranium Energy Corp bu bitimdagi moliyaviy ishtiroki orqali o'iyalarga bo'lgan qiziqish ortayotganini ko'rsatmoqda.



ASOSIY KORPORATIV VA OPERATSION VOQEALAR

2026-yilning aprel va may oylarida global uran sanoatida qator muhim voqealar yuz berdi, bu esa ishlab chiqarishdagi siljishlar va investorlar qiziqishining ortayotganini ko'rsatdi. O'zbekistonda "Navoiyuran" DKning Qizilqum ISR loyihasida tijorat ishlab chiqarishini boshladi — bu nafaqat yangi quvvatlarning ishga tushirilishini, balki O'zbekistonning arzon va raqobatbardosh yetkazib beruvchi sifatidagi mavqeining mustahkamlanishini anglatadi.

Shimoliy Amerikada AQSHda uran sanoatining tiklanishi jadallashdi: Uranium Energy Corp Texasdagi Burke Hollow konida so'nggi o'n yildagi ilk yangi ISR konini ishga tushirdi. Ur-Energy esa Vayoming shtatidagi Shirley Basin hududida dastlabki U₃O₈ qazib olishni boshladi — bu mahalliy ishlab chiqarishni qayta tiklash yo'lida muhim bosqich bo'ldi.

Kanadada esa barqarorlik va uzilishlar bir vaqtning o'zida yuz berdi. Cameco birinchi chorakda kuchli ishlab chiqarish natijalarini e'lon qildi va muqaddam chop etilgan yillik prognozini tasdiqladi. Biroq, may oyida Saskatchewandagi toshqinlar McArthur River va Key Lake konlariga logistika yetkazib berishni buzib, vaqtincha ishlab chiqarish qisqartirilishiga olib keldi. Denison Mines esa Phoenix ISR loyihasida qurilish oldi ishlarining jadval asosida davom etayotganini tasdiqladi — bu Athabasca havzasidagi eng strategik loyihalardan biri hisoblanadi. Yangi ishlab chiquvchilar ham faollik ko'rsatdi: Triton Uranium AQSHda SPAC orqali listing imkoniyatlarini o'rganmoqda va Atlas loyihasida dastlabki bosqich ishlarini olib bormoqda.

Korporativ yo'nalishda esa "uran royalti" modeli jiddiy e'tibor qozondi. Uranium Royalty Corp Sweetwater Royalties bilan 1,9 milliard AQSH dollariga teng bitim doirasida birlashdi. Ushbu kelishuv Uranium Energy Corp moliyaviy ko'magida amalga oshirildi va an'anaviy konchilikdan tashqaridagi strukturaviy investitsiyalar orqali uran sohasiga bo'lgan institutsional qiziqish kuchayib borayotganini anglatadi.



YIRIK ISHLAB CHIQUYUVCHILAR VA OPERATSION PLATFORMALAR BO'YICHA YANGILIKLAR

Uran sanoatining yetakchi ishlab chiqaruvchilari uchun 2026-yilning aprel–may oylarida ishlab chiqarishdagi barqaror o'sish va strategik joylashuvdagi o'zgarishlar davri bo'ldi. Qozog'istonning “Kazatomprom” kompaniyasi 1-chorakda 6 144 tonna uran ishlab chiqarganini (100% asosida) ma'lum qildi, bu o'tgan yilga nisbatan 9% ko'pdir, biroq yetkazib berish vaqtidagi farqlar savdo hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Kompaniya muhim reagentlar zaxirasini ta'minlashni ishlab chiqarish barqarorligining kaliti sifatida belgiladi.

Kanadada Cameco 1-chorakda McArthur River/Key Lake va Cigar Lake konlaridan jami 9,9 million funt U_3O_8 ishlab chiqardi. Biroq may oyidagi Saskatchewan'dagi suv toshqinlari Key Lake zavodida qayta ishlash jarayonlarini vaqtincha to'xtatishga olib keldi.

O'zbekistonda “Navoiyuran” kompaniyasi Qizilqum ISR konida tijoriy ishlab chiqarishni boshladi. Yiliga 1 200 tonna uran ishlab chiqarish quvvatiga ega bu loyiha zamonaviy kislorodli texnologiyalar yordamida amalga oshirilmoqda.

Fransiyaning Orano kompaniyasi Nigerdagi faolligini kamaytirayotgani sababli portfelni kengaytirish maqsadida Janubiy Koreyaning KHNP kompaniyasi bilan yoqilg'i aylanishi bo'yicha hamkorlik memorandumini imzoladi va Botsvanada uran razvedkasi bo'yicha ruxsatnomalarni oldi.

Afrikada Paladin kompaniyasining Namibiyadagi Langer Heinrich koni 2026-yil iyul oyida to'liq quvvatda ishga tushirilishi rejasiga muvofiq rivojlanmoqda. Malawi Respublikasidagi Lotus Resources kompaniyasining Kayelekera koni esa yiliga 2,4 million funt doimiy ishlab chiqarish bosqichiga yaqinlashmoqda.

AQSHda Uranium Energy Corp Burke Hollow konini ishga tushirdi va Vayoming shtatidagi boshqa loyihalarni, shu jumladan konversiya infratuzilmasini rivojlantirishni davom ettirdi. Ur-Energy esa tarixiy ahamiyatga ega Shirley Basin konida qazib olish ishlarini qayta boshladi.

Rossiyada “Rosatom–Dalur” kompaniyasi Verxne-Uksyanskaya konida birinchi mobil sorbsiya blokini ishga tushirish uchun ruxsat oldi, bu esa kelajakda in-situ ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Kanadada Denison Mines Phoenix ISR loyihasida tayyorgarlik ishlarini davom ettirib, Athabasca havzasidagi eng muhim rivojlanayotgan konlardan birining jadvalga muvofiq harakatlanishini ta'minlamoqda.



NAVOIYURAN
State-owned Enterprise

POLICY AND GEOPOLITICAL DEVELOPMENTS: INSTITUTIONAL ANCHORING OF THE FUEL CYCLE

2026-yilning aprel–may oylarida yadro yoqilg‘isi aylanishi siyosatida keskin burilish ro‘y bermagan bo‘lsa-da, bu davr yoqilg‘i zanjirini chuqurroq institutsional asosda mustahkamlash va mintaqaviy diversifikatsiyaga xizmat qiluvchi muhim strukturaviy siljishlar bilan ajralib turdi. AQSHda Energetika vazirligi mahalliy yoqilg‘i ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga qaratilgan ikki tashabbusni ishga tushirdi. Ulardan biri ishlatilgan yadro yoqilg‘isini qayta ishlash orqali ilg‘or reaktorlar uchun qayta foydalanish imkonini yaratishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchisi “Mudofaa ishlab chiqarish to‘g‘risidagi qonun” asosida boyitilgan uran va boshqa strategik xomashyoni ichki manbalar hisobiga ta‘minlashni ko‘zlaydi. Bu yondashuv umumiy yadro tarafdori bayonotlardan aniq amaliy choralar sari o‘tishning belgisidir va u bevosita kon bosqichidagi uran qazib oluvchilarga ta‘sir ko‘rsatadi.

Boshqa mintaqalarda ham xuddi shu yo‘nalishda institutsional signalalar paydo bo‘ldi. 3-aprel kuni Janubiy Koreyaning KHNP kompaniyasi va Orano kompaniyasi o‘rtasida xomashyo xavfsizligiga urg‘u berilgan keng ko‘lamli yoqilg‘i aylanishi bo‘yicha anglashuv memorandumi imzolandi. Buyuk Britaniyada URENCO kompaniyasining Capenhurst obyekti 5% U-235 darajasidan yuqori bo‘lgan LEU+ boyitmasining birinchi muvaffaqiyatli sinovini o‘tkazdi, bu esa yangi avlod reaktorlarining yoqilg‘i talablarini qondirish yo‘lida muhim qadamdir. Hindistonda esa 1-may kuni hukumat tomonidan NFC-Kota zavodiga yillik 500 tonna PHWR atom yoqilg‘isi ishlab chiqarish uchun litsenziya taqdim etildi, bu esa 700 Megavat quvvatdagi milliy reaktorlar parkini ta‘minlashda ishlab chiqarish mustaqilligini kuchaytiradi.

Geosiyosiy jihatdan esa uran bozorida diversifikatsiya muhim asosiy tendensiyaga aylandi. Afrikada Orano kompaniyasi Botsvanada 15 ta uran razvedkasi litsenziyasini olish uchun ariza topshirdi. Bu qadam Nigerdagi faoliyatdagi uzilishlarga bevosita javob sifatida ko‘rilmoqda va global izlanish strategiyalarining geosiyosiy xavfsizlik nuqtai nazaridan qayta shakllanayotganini ko‘rsatadi. G‘arbiy va Osiyo bozorlarida esa barqaror, uzluksiz va ishonchli uran hamda yoqilg‘i xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj tobora umumiy tijoriy ustuvorlikka aylanib bormoqda. Bu esa butun dunyo bo‘ylab uranning kon darajasidagi zaxiralari va yetkazib berish tarmog‘ini yanada strategik ahamiyatga olib chiqmoqda.



TEKNOLOGIK, EKOLOGIK VA IJTIMOY RIVOJLANISHLAR:

INNOVATSIYA VA INFRASTRUKTURA E'TIBOR MARKAZIDA

Davr mobaynida yer ostida eritma usulida (ISR) uran qazib olishdagi texnologik yutuqlar asosiy e'tibor markazida bo'ldi. O'zbekistonda "Navoiyuran" DK tomonidan Qizilqoq konining tijoriy ishga tushirilishi nafaqat yangi ishlab chiqarish bosqichi sifatida, balki kam reagentli kislorodli ISL texnologiyasining amaliy qo'llanmasi sifatida ham muhim voqea bo'ldi. Kompaniya ushbu texnologiyani xarajatlarni kamaytirish va qazib olish samaradorligini oshirish vositasi sifatida taqdim etmoqda. Global uran bozori torayib borayotgan bir paytda, bunday yuqori samarali va ekologik izsiz texnologiyalar navbatdagi taklif to'loqini shakllantirish uchun tayyorlanmoqda.

Yoqilg'i zanjirining pastki bosqichlarida ham innovatsiyalar jadallashmoqda. URENCO kompaniyasi Buyuk Britaniyadagi Capenhurst zavodida LEU+ boyitish bo'yicha muvaffaqiyatli sinov o'tkazdi—bu orqali U-235 izotopi 7% gacha boyitilgan uran olindi, bu esa ilg'or reaktorlar uchun mo'ljallangan mahsulot hisoblanadi. AQSHda esa Energetika vazirligi tomonidan boshlatilgan qayta ishlash tashabbusi ishlatilgan yadro yoqilg'isini yangi reaktor texnologiyalari uchun xomashyo sifatida qayta ishlash bo'yicha xususiy sektor bilan hamkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan. Bu jarayonlar to'g'ridan-to'g'ri kon bosqichiga tegishli bo'lmasa-da, ular uran xomashyosining qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va yuqori darajadagi ta'minot ishonchliligiga bo'lgan talabning ortib borayotganini ko'rsatadi.



TEKNOLOGIK, EKOLOGIK VA IJTIMOY RIVOJLANISHLAR:

INNOVATSIYA VA INFRASTRUKTURAGA E'TIBOR MARKAZIDA

Qidiruv ishlari bo'yicha, Kanadaning Saskatchewan hududida Purepoint kompaniyasi havo orqali olingan MobileMT geofizik ma'lumotlarini 3D struktura modellashtirish bilan birlashtirib, raqamli maqsadli qidiruv usullarini ilgari surdi. Ushbu yondashuv burg'ulash samaradorligini oshirish va yuqori salohiyatga ega kon havzalarida aniqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Atrof-muhit va ijtimoiy yo'nalishlarda esa operatsion zaifliklar va jamoatchilik fikri e'tibor markazida bo'ldi. Saskatchewan provinsiyasida muhim ko'prikning qulab tushishi to'g'ridan-to'g'ri konlarga ta'sir qilmagan bo'lsa-da — Cameco kompaniyasining operatsiyalariga olib boruvchi yetkazib berish yo'llarini vaqtincha to'sdi. Bu esa, eng yirik aktivlar ham tashqi infratuzilma xatarlariga qanchalik ta'sirchan ekanligini ko'rsatdi. Utah shtatida esa 16-may kuni mahalliy aholi Energy Fuels'ga aloqador uran tashish va qayta ishlash operatsiyalariga qarshi norozilik namoyishi o'tkazdi, bu esa tarixiy kon faoliyatining jamoatchilik tomonidan doimiy kuzatuvda ekanini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Kanadadagi UraniumX kompaniyasining Zoo Bay maydonida yovvoyi hayvonlar bilan bog'liq fojiali hodisa sodir bo'ldi. Natijada dala ishlariga vaqtincha to'xtalish e'lon qilindi va bu olis hududlardagi geologik qidiruvda xavfsizlik protokollarining zarurligini yana bir bor e'tirof etmoqda.

Ogohlantirish: Ushbu axborot byulleteni asosan ochiq manbalardan — rasmiy kompaniya bayonotlari (shu jumladan, Navoiyuran, Cameco, Uranium Energy Corp, Ur-Energy, URENCO va Orano), hukumat va nazorat organlari (masalan, AQSh Energetika vazirligi, Oq uy va Hindistonning Atom Energetikasi Nazorat Kengashi), hamda xalqaro tashkilotlar (IAEA va Butunjahon Yadroviy Assotsiatsiyasi) tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslangan. Shuningdek, bozor voqealari bo'yicha dolzarb ma'lumotlar Reuters kabi ishonchli axborot agentliklari orqali yoritilgan. Haftalik narxlar dinamikasi va spot bozor sharhlari zaruratga qarab ochiq ommaviy manbalar bilan to'ldirilgan, chunki UxC va TradeTech kabi yetakchi konsalting kompaniyalarining maxsus ma'lumotlari jamoatchilik uchun yopiq hisoblanadi.

